

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY MDANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Nozirova Shohida Nosirovna

Buxoro viloyati Peshku tumani 37-Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: *Ushbu maqola MTT tarbiyalanuvchilarining aqliy, ma'naviy varuhiy, rivojlanishi hamda ularni shaxs sifatida kamol toptirishning asosiy shart-sharoitlari.*

Kalitso'zlar: *Tarbiyachi, shaxs, tarbiya, ma'naviy, aqliy, pedagogik, o'yin, uzluksiz ta'lim.*

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan pedagogik jarayon bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilishi zarurligi va shartligi hammaga ayon. Pedagogik jarayonni asosiy ko'rinishlaridan biri bu, bola shaxsiga ehtiyotkorlik bilan pedagogik-psixologik yondashish kerak. To'la ma'noda tashkil etilmagan pedagogik jarayon o'sayotgan bolani miyasida bo'shliqlar paydo bo'lishiga olib keladi. Bola o'sgan sari uning miyasi, aqli to'ladi. Shuning uchun ota-onalar tarbiyachilar diqqatida bo'lishi kerak. Bolalarni yoshiga qarab rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy o'yinlar harakatlarni rivojlantiruvchi va hatto bolalarning sog'ligini tiklovchi o'yinchoqlar bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim bolaga ijtimoiy muhit tomonidan ta'sir ko'rsatadigan, malakali shaxslar tomonidan ta'lim-tarbiya faoliyatni samarali tashkil etadigan ilk bilim dargohi hisoblanadi. Har bir bola ruhiyati o'ziga xos bo'lgan murakkab konfiguratsiyaga ega, shu bilan unga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'siri ham juda xilma-xildir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlari va faolliklari ham aynan maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulot jarayonlarida o'z ifodasini topadi. Xuddi shuningdek hozirgi kunda tarbiyalanuvchi bolajonlar o'rtasida olib boriladigan asosiy mashg'ulotlar bolaning diqqati va xulq-atvor ko'nikmalariga ijobiy ta'sir etib bolada hayotga o'zgacha bir qiziqish paydo qiladi.

Bolalarni nutqini rivojlantirishda o'yinchoqlarning o'рни katta. Hozirgi vaqtda o'yin faoliyati to'liq amalga oshirilgandagina bola shaxsi rivojlanadi. O'yin faoliyatini bevosita kattalar bilan birga amalga oshiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim sohasidagi islohatlar avvalo oiladan bashlanadi. Xuddi shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bug'ini hisoblanadi. Avvalo bu tizimga ota-onalarning ijtimoiy faoliyati va farzandlari uchun shart-sharoit yaratishlari nazarda tutilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish mazmuniga esa kichkintoylarni maktab bosqichida o'qishga tayyorlashdir. Maqsadimiz bilimni sifatini ko'tarish va dunyo andozalari darajasiga olib chiqish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning odob ahloqli va mehnatga layoqatli, yetuk bo'lishiga juda katta e'tibor beriladi. Bolalarni ilk yoshdan boshlab uyda, kuchada, bog'chada, mexmonda o'zini tutish qoidalari, muomila madaniyati, ovqatlanish, kiyinish-yechinish, saranjom-sarishta yurish, odobli mehnatsevar bo'lish va

boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga o'rgatish orqali bolani odob ahloqli mehnatga moyil qilib tarbiyalash, Maktabgacha ta'lim tashkiloti ishining mazmuni, tarbiyaning asosini tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning odob ahloqi va mehnatkash bo'lib tarbiyalanishi uchun ularga salomlashish va xayrlashishni bilish, o'zidan kattalarga sizlab murojaat qilishni bilishni o'rgatib borish zarur. Ularga «labbay», «xup bo'ladi», «xush kelibsiz», «rahmat», «salomat bo'ling», «mumkinmi», «kechirasiz», «marhamat» kabi so'z va iboralarni o'z o'rniga kuyib ishlatishni bolalar ongiga singdirib borishimiz kerak. «Lekin sog'lom avlod tarbiyasi oson ish emas, u har bir inson va har bir oila, butun jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi»- degan edi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiya asoslari bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishni o'rganadilar, ularning faoliyati turlari sezilarli darajada kengayib boradi va atroflaridagi dunyo bilimlari doimiy ravishda to'ldiriladi. Shunday qilib, ota-onalar axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishga va ularni kuzatishga tayyor bo'lganda, bu yo'nalishni qanday belgilashadi? Oddiy sinov bor: bolangizni orqaga qaytmasliklarini iltimos qiling va siz uning oldiga qiziqarli yangi o'yinchini ochishingiz kerak. Bunga qarshilik qildingizmi? Qaytib ketmadingizmi? Agar bola istaklarini va istaklarini boshqarishni o'rgangan bo'lsa, u oddiy axloq me'yorlarining talablarini bajarishga juda tayyor. Oldimizga qo'yilgan barcha maqsadlarimizning siyosiy – iqtisodiy va ma'naviy hayotimizda davlatimiz, jamiyatimiz qurilishida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning, ezgu intilishlarimizning ma'no mohiyati sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Aqliy faoliyatni tashkil etish va aqliy ishlarni tartibga solishga doir masalalar yoritilgan. Bundan maqsad haddan tashqari charchash va asabiylarning oldini olishdir. Biz buyuk kelajak sari odimlamoqdamiz. Shu bois yuksak axloqiy salohiyatga ega bo'lgan avlodni tarbiyalamog'imiz darkor. Sog'lom xalq, sog'lom millat buyuk ishlariga qodir bo'ladi. Shaxs tayyorgarligi atrof muhitni kattalarga, tengdoshlariga, o'ziga, o'simliklar, jonivorlar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, insonlar yaratuvchanligiga munosabatda yuzaga keladigan shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi. Eng muhimi bola ongiga qanday umumiy axloqiy tamoyilning mustaxkamlanganligi, u tomonidan ijtimoiy ahloq me'yorlari va umum insoniy qadriyatlarining tan olinganligi «nima yomon», «nima yaxshi»ligini anglaganidir. Shaxs (ruxiy) tayyorgarligida eng muhim jihat «bolaning ichki pozitsiyasi» shakllanganligidir yoki «motivatsion-tayyorgarlik», ya'ni bolaning kattalar va tengdoshiga yordam berishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'lik sabablarga ko'ra maktablarga borish istagini uyg'otish. Shaxs rivojlanishi oiladagi tarbiyaga bog'liq. Tortinchoq va qo'rqqoq bolalar ko'proq qat'iy nazoratga ushlab turiladigan, bola tashabbusi buladigan oilalarda bo'ladi va oxir oqibatda u faqatgina kattalar yoki birovlarning ruxsati bilan harakat qiladigan bo'lib qoladi. Bolasini maqtaydigan oilada bolalar aniq maqsadi bo'lmasada, buyruq berishga o'rganadi va muomila qilishni bilmaydi. Bolani o'z holiga quysa jangari, qat'iysiz, salbiy alomatlar paydo bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining aqliy, ma'naviy va ruhiy rivojlanishi, ularni shaxs sifatida kamol toptirishning shart sharoitlaridir. Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso'zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo'lib,

bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta'limni ham g'azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma'qul. Zero, zo'rlab berilgan ta'lim bola xotirasidan tezda o'chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so'nishi mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi. Islom ta'limotida yosh avlodning jismonan sog'lom va baquvvat bo'lib ulg'ayishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu haqda Payg'ambarimiz (s.a.v.): "Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni o'rgatinglar", deganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Voxidov M. «Bolalar psixologiyasi» Toshkent. 1992 y.
2. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. T.,
3. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari
4. Zunnunov A. Oilada bola shaxsini shakllantirish. T.: O'zbekiston, 2006 yil